ERPOLAT BAXT SHE'RIYATIDA KOSMONIMLARNING LINGVOPOETIK TAHLILI

Jahongir Xo'janiyozov Xudaybergan o'g'li –

Ma'mun universiteti o'zbek va sharq tillari kafedrasi o'qituvchisi

+998995006097 xojaniyozovjahongir@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-2888-0011

Annotatsiya: Ushbu maqola shoir Erpolat Baxt she'riyatida qo'llanilgan kosmonimlar ning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Kosmonimlar, lingvopoetik tahlil, onomastik birlik, badiiy matn, metafora, intertekstual birlik.

Abstract: Данная статья посвящена анализу лингвопоэтических свойств космонимов, используемых в поэзии поэта Эрполата Бахта в литературном тексте.

Keywords: Cosmonyms, linguopoetic analysis, onomastic unit, literary text, metaphor, intertextual unit.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу лингвопоэтических свойств космонимов, используемых в поэзии поэта Эрполата Бахта в литературном тексте.

Ключевые слова: Космонимы, лингвопоэтический анализ, ономастическая единица, литературный текст, метафора,

интертекстуальная единица.

Bugungi kun ijodkorlari o‘zlarining asarlarida bir qancha onomastik birliklardan mahorat bilan foydalanganligini, ushbu onomastik birliklar badiiy matn tarkibida lingvopoetik vazifa bajarishini ko‘ramiz. Buni bir qancha lingvistik tahlchilarning tadqiqotlari misolida kuzatish mumkin. Aslida ijodkor badiiy mahoratining yuqoriligi bunday tahlillarning sonini yanada oshishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar erishgan yutuqlarga asosan Erpolat Baxt she’riyatidagi onomastik birliklar bo‘lmish kosmonimlarni lingvopoetik tahlilga tortishga harakat qildik. Erpolat Baxt she’rlarida matnning badiiy xususiyatini oshirishga xizmat qiluvchi bir qancha onomastik birliklar mavjudligini va bu borada barakali ijod qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

E. Begmatov kosmonimlarni onomastik tizimning ajralmas qismi sifatida tadqiq etgan. Olim kosmonimlarni kishi ismlari (antroponimlar) bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Ya’ni uning fikricha, qadimgi o‘zbeklarda osmon jismlariga sig‘inish natijasida ularning nomlari kishi ismlariga ko‘chgan. Masalan: ***Oybek, Yulduz*** kabi. [3; 46-48.]. Yoki T. Nafasov ***“Somon yo‘li”, “Yetti qaroqchi”, “Hulkar”*** kabi xalqchil kosmonimlarning etimologiyasini xalq afsonalari bilan bog‘laydi va kosmonimlarni xalqning astronomik tasavvurlari mahsuli deb hisoblaydi [6; 112.]. Erpolat Baxt o‘z she’rlarida oy, quyosh, osmon, falak, yulduz, oftob, moh kabi leksemalarni qo‘llaganligi ijodkor she’rlarining estetik xususiyatini yanada oshirganligi bilan ko‘zga tashlanib turadi. Erpo‘lat Baxt o‘zining “Dil tafsiri” nomli saylanmasida [7.] oy leksemasini 19 marta, quyosh leksemasini 19, unga sinonim bo‘lgan oftob so‘zini 3, yulduzni 9, somon yo‘lini 2, qutub yulduzini 1, moh so‘zini 1 marta qo‘llaganligini ko‘ramiz. Ushbu kosmonimlar badiiy matnda nafaqat nominativ

birlik balki badiiy tasirchanlikni oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bu ijodkorning she’rlari misolida tahlilga tortildi.

Tabassumga g‘arib ***qahkashon,***

Somon yo‘li *– alamlar cho‘li.*

Faqat bunda tong berar taskin

Dilbar do‘sting jamoli bo‘lib … [7; 78.].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida Kahkashon so‘zi ikki o‘rinda ya’ni Somon yo‘li hamda nisbatlash (masalan: *Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor. Yarim kecha kahkashoning bo‘layin. Mirtemir.*) ma’nosida ishlatilishi keltirilgan [2; 713.]. [f. – somon tortuvchilar, tashuvchilar: Somon yo‘li] 1 Osmonda tunda uzunasiga ko‘rinadigan yo‘l; Somon yo‘li. Yana boshqa manbaalarda ham Kahkashon so‘zi fors tilida kah kah (somon) va kashon (tortuvchi) so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan «somon tortuvchi» ma’nosini beruvchi so‘zdir. Somon yo‘li yoki Kahkashon deyilishiga sabab: asotir va afsonalarga qaraganda, shu yo‘l orqali tashilgan somon to‘kilib qolib oqish rang – somon rangini hosil qilgan va shu nom bilan atala boshlagan [5; 246.]. Shoir koinot tasvirini berishda ***“Kahkashon”*** va ***“Somon yo‘li”*** kosmonimlaridan sinonimik qatorlar yaratishda foydalangan. Ikkita sinonimning matn tarkibidagi bitta qatorda kelishi ta’sirchanlikni yanada oshirib, ma’noni darajalab ko‘rsatadi. She’rdagi ***Somon yo‘li – alamlar cho‘liga*** qiyoslangan bu esa metaforani hamda mumtoz adabiyotdagi tashbeh san’atini vujudga keltirgan. She’rda o‘xshamish va o‘xshatilmish mavjud, o‘xshsatish vositasi tushirilgan E’tibor berilsa ijodkorning dard va qayg‘usi shu darajada yuksakligidan hattoki somon yo‘lidagi yulduzlar muallif uchun

alamlar cho‘lidagi mayda qum zarralaridek tuyuladi. Muallif tafakkuri butun bir koinotni qamrab olgani holda ulkan gallaktik Sistema va undagi ulkan yulduzlar kichik zarrachalik ahamiyatsizdir. Bu ichki zidlanish zarra va yulduz antonimiyasi favqulodda ajoyibdir.

A.Primov o‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlarini tadqiq etib, qirqqa yaqin maqola yozgan hamda nomzodlik ishini himoya qilgan. Nomzodlik ishining dastlabki bobida kosmonimlarning atalish motiviga ko‘ra turlari, hosil bo‘lishi va tasnifi masalalari o‘rganilgan. Somon yo‘li nomlari (Somon yo‘li, Samanchi jol, Rohi qahkashon kabi) ga ajratib tahlil qilgan [4; 1.]. Erpo‘lat Baxt ham somon yo‘li kosmonimidan sinonimik qator sifatida unumli foydalanganligi yuqorida ta’kidlandi. Quyida “Onangni esla” she’rida ham ushbu kosmonimning boshqa xil ma’noda qo‘llaganligini ko‘rsak bo‘ladi.

Xotirasi - yo‘lingda yo‘lchi,

***Somon yo‘li**, balki falakda.*

Iqbolingni turar yoritib

Duolardan tolmas malakday [7; 133.].

Dunyodagi eng mo‘tabar zotga bag‘ishlangan ushbu she’rda ham Somon yo‘li kosmonidan foydalanilganligini ko‘rsak bo‘ladi. Matn tarkibidagi Somon yo‘li kosmonimi matnning ta’sirchanligini oshirish va ma’no ko‘lamini koinot miqyosiga qadar kengaytirish uchun juda ustalik bilan qo‘llanilgan. She’rda bu kosmonim to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’nosida emas, balki yuksaklik metaforasi sifatida kelgan. Shoir insonning yorqin xotirasini Somon yo‘liga tenglashtirmoqda. Kosmonim she’rda xotira yo‘lidagi yo‘lchi ya’ni yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasini bajarayotgani aytilyapti. Hayotning qorong‘i va

murakkab so‘qmoqlarida pok xotiralar huddi osmondagi Somon yo‘li kabi insonga to‘g‘ri yo‘lni yoritib turadi. E’tibor berilsa oldingi she’rdagi Somon yo‘li kosmonimi salbiy ma’noda kelganligini, hozir tahlilga tortilayotgan she’rdagi somon yo‘li esa ijobiy ma’nda kelganligini ko‘rish mumkin. Bunda har bir samo obyekti (yulduzlar) yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq kabi taassurot qoldiradi. Ayni shunday yo‘l ko‘rsatuvchi vazifasidagi navbatdagi kosmonimni shoirning keying “Uchrashamiz ertaga bizlar…” she’rida ham ko‘rish mumkin.

Birinchi qatorda metafora asosida

Bir-birovning ro‘parasida

Bormi zarra qadrimiz o‘zi?!

Yurakdagi sevgi, bizningcha,

So‘nayotgan ***qutub yulduzi*** [7; 63.].

Qutub yulduzi o‘zbek tilining izohli lug‘atida yetti qaroqchi yulduz turkumidagi eng yorug‘ yulduz Qutb yulduzi // Temirqoziq // Oltinqoziq nomlari bilan ataladi. Qutb so‘zi arabcha bo‘lib, «Yerning faraziy aylanish o‘qi bilan Yer sirti kesishgan ikki nuqtadan har biri» degan ma’noni bildiradi [1; 390.]. Yuqorida keltirilgan she’rda badiiy matn qahramonlarining sevgisini tobora kamayib borayotganligini qutub yulduzining so‘nishiga qiyoslaganligini ko‘ramiz. Bu o‘rinda kosmonimlar o‘xshatishga asos ya’ni sevgi qutub yulduziga qiyoslangan va metaforani yuzaga chiqargan va o‘zining badiiy mahoratini yana bir bor ko‘rsata olgan. Chunki yurakdagi sevgi so‘nayotgan qutub yulduziga qiyoslanmoqda. Aslida esa qutub yulduzi so‘nmaganligini, uning muqim bir joyda turishi va unga qarab insonlar o‘z yo‘lini topishini bilamiz. Bu holat badiiy matnning yanada bo‘yoqdorligini oshishiga xizmat

qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Erpo‘lat Baxt ijodidagi kosmonimlar badiiy matnda alohida o‘ringa ega ekanligini ko‘rish mumkin. Ijodkor she’rning badiiy jozibasini oshirishda kosmonimlargan unumli foydalangan va bu birliklar poetik jihatdan o‘quvchiga o‘z ta’sirini yetkaza oladi. Chunki kosmonimlar matnda faqatgina nominativ ma’no bildiribgina qolmay, metafora, darajalanish, o‘xshatish, antonimik munosabat kasb etganligiga ham guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. 5-jild. – B. 390.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Olti jildli. — Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. 2-jild. — 713-bet
3. Begmatov E. O‘zbek ismlari ma’nosi. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. 46-48-betlar
4. Primov A. O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari. Avtoreferat. — Toshkent: 2009. 17-bet
5. Никонов В.А. География названий Млечного Пути // Ономастика Востока. – М., 1979. – С. 246.
6. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘qituvchi, 1988. 112-bet
7. Erpo‘lat B. Dil tafsiri. – Urganch: Xorazm yoshlari, 2021.